



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 122 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts .....	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari .....	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari .....	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish .....	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
<b>Родина Ирина Витальевна</b>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar .....	91
<b>Feruz Tohirova</b>	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	99
<b>Islomova Mushtaribonu Akram qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	104
<b>Nafisa Tuxtasinova</b>	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari .....	108
<b>To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova</b>	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi .....	113
<b>Xudayberdiev Inom Xasanovich</b>	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati.....	117
<b>Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi</b>	



# YOSHLAR OILALARDA EKOLOGIK MADANIYATI RIVOJLANISHIDA TURAR JOY MUHITI VA GENDER YONDASHUVLARINING AHAMIYATI

Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi

Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0002-1702-1767



**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy urbanizatsiya sharoitida yosh oilalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotda yosh oilalarda tabiatga nisbatan munosabatning gender xususiyatlari, xususan, affektiv (ayollarga xos) va kognitiv (erkaklarga xos) ustuvorliklar tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda shahar muhitida istiqomat qiluvchi yosh oilalar uchun turar joy turi (ko'p qavatli uy yoki hovli) hamda gender omillarining ekologik madaniyat tarkibiy qismlariga ta'siri yaxlit ijtimoiy-psixologik model asosida empirik jihatdan tizimli ravishda o'rganilgan.

Diagnostik jarayonda S.D. Deryabo va V.A. Yasvinning "Naturafil" metodikasidan foydalanildi. 400 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari yosh oilalarda ekologik tarbiya strategiyalarida "universal" yondashuvdan "differensiallashgan" yondashuvga o'tish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

**Kalit so'zlar:** ekologik madaniyat, yosh oilalar, urbanizatsiya, gender yondashuvi, ekopsixologiya, turar joy muhiti, affektiv va kognitiv ustuvorliklar.

**Abstract:** This article examines the socio-psychological aspects of developing the ecological culture of young families in the context of modern urbanization. The study analyzes the gender-specific characteristics of attitudes toward nature among young families, particularly affective (female-oriented) and cognitive (male-oriented) priorities.

The scientific novelty of the research lies in its systematic empirical investigation, based on a holistic socio-psychological model, of the influence of housing type (apartment buildings or detached houses) and gender factors on the components of ecological culture among young families living in urban environments.

The diagnostic stage employed the "Naturafil" methodology developed by S.D. Deryabo and V.A. Yasvin. The results of a comparative analysis involving 400 respondents scientifically substantiate the need to shift from a universal approach to a differentiated approach in environmental education strategies for young families.

**Key words:** ecological culture, young families, urbanization, gender approach, ecopsychology, residential environment, affective and cognitive priorities.

**Аннотация:** Данная статья посвящена социально-психологическим аспектам развития экологической культуры молодых семей в условиях современной урбанизации. В исследовании проанализированы гендерные особенности отношения к природе у молодых семей, в частности аффективные (характерные для женщин) и когнитивные (характерные для мужчин) приоритеты.

Научная новизна исследования заключается в том, что на основе целостной социально-психологической модели на эмпирическом уровне системно исследовано влияние типа жилья (многоквартирный дом или индивидуальный дом) и гендерных факторов на компоненты экологической культуры молодых семей, проживающих в городской среде. В диагностическом исследовании использована методика "Натурафил" С.Д. Дерябо и В.А. Ясвина.

Результаты сравнительного анализа, проведённого с участием 400 респондентов, научно обосновывают необходимость перехода от "универсального" подхода к "дифференцированному" подходу в стратегиях экологического воспитания молодых семей.

**Ключевые слова:** экологическая культура, молодые семьи, урбанизация, гендерный подход, экopsихология, жилищная среда, аффективные и когнитивные приоритеты.

## KIRISH

Zamonaviy urbanizatsiya sharoitida yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish - bu davlatimiz taraqqiyotining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Biz ekologik muammolarni faqatgina qonunlar bilan emas, balki har bir oila, har bir mahalla va har bir insonning shaxsiy madaniyati orqali hal qilishimiz shart" <sup>[1]</sup>.

Ilmiy nuqtai nazardan inson ekologiyasi hozirgi kunda individ va shaxs sifatidagi insonni, uni qurshab turgan tabiiy hamda ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq etuvchi fanlar majmuasi hisoblanadi <sup>[3]</sup>. Ekologik madaniyat esa murakkab va ko'p qirrali fenomen bo'lib, uning tarkibiy qismlari sifatida bir qator muhim komponentlar ajralib turadi.

Rus olimlari A. Melkumova va G. Lyubkarskiy ta'kidlashicha, ekologik madaniyat e'tiqod, bilim va ko'nikmalar, shuningdek, faoliyat, xulq-atvor me'yorlari hamda his-tuyg'ulardan iborat kompleks tizim sifatida shakllanadi <sup>[13]</sup>.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh oilalarda tabiatga nisbatan munosabat asosan ikki turdagi - affektiv va kognitiv mexanizmlar orqali shakllanadi. Xususan, ayollar ko'proq tabiatga bo'lgan muhabbat, ekologik turmush tarziga ta'sir qiluvchi harakatlar va uy muhiti tozaligiga e'tibor qaratib, affektiv ustuvorlikni namoyon etadilar. Erkaklar esa tabiatga nisbatan amaliy va ratsional yondashuvni afzal ko'rib, kognitiv ustuvorliklar asosida barqaror rivojlanish tamoyillariga e'tibor qaratadilar.

Mazkur ustuvorliklarning yosh oilalarda birgalikda yoki nomutanosib ravishda namoyon bo'lishi ularning umumiy ekologik madaniyati rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [9]. Shu bois yashash sharoitining mazkur gender ustuvorliklari bilan integratsiyalashgan holda ekologik madaniyat tarkibiy qismlarini rivojlantirishdagi o'rnini qiyosiy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik madaniyat va shaxsning atrof-muhitga nisbatan munosabati masalasi jahon va mahalliy fanlarda ko'p qirrali fenomen sifatida keng tadqiq etilgan. G'arb psixologiyasida ushbu yo'nalish asosan ekologik identifikatsiya hamda proekologik xulq-atvor qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Xususan, P. Stern va S. Shvarts shaxs qadriyatlarining ekologik harakatlarga ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa <sup>[8]</sup>, R. Gifford va S. Clayton ekologik identifikatsiya mexanizmlarini yoritib berganlar <sup>[5]</sup>.

J. Rotton, J. Simister va G. Winneke kabi olimlar esa ekologik ongning shunchaki bilimlar majmuasi emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi interaktiv bog'liqlikni boshqaruvchi kognitiv-bixevioral mexanizm sifatida talqin etadilar <sup>[7]</sup>.

V.I. Panovning ekopsixologik yondashuvi <sup>[14]</sup>, S.D. Deryabo va V.A. Yasvin tomonidan ekologik ongning subyektiv tabiati <sup>[11]</sup>, shuningdek, S.N. Glazachev va E.V. Asafovalarning tadqiqotlarida ekologik madaniyatni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan <sup>[10]</sup>.

Oila sotsiologiyasi va psixologiyasi doirasida urbanizatsiyaning oila institutiga ta'siri A.I. Antonov va V.N. Drujininning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan <sup>[12]</sup>.

O'zbekiston psixologiya fanida ham shaxs va oila munosabatlari, shuningdek, ekologik tarbiya masalalari bo'yicha sezilarli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, M. Akramovning ilmiy ishlarida talabalarda ekologik tasavvurlar va tafakkurni shakllantirishning psixologik mexanizmlari yoritilgan <sup>[4]</sup>.

N. Egamberdiyevaning tadqiqotlari esa yosh avlodni ekologik tarbiyalash hamda barkamol shaxsni shakllantirishning pedagogik-psixologik muammolariga bag'ishlangan.

Yosh avlodni tarbiyalash muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tizimida N.M. Egamberdiyeva <sup>[6]</sup>, shuningdek, Z. Abdunazarova <sup>[2]</sup> tomonidan shaxsning ekologik tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatlari tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning ilmiy qimmatini e'tirof etgan holda ta'kidlash lozimki, shahar sharoitida istiqomat qiluvchi yosh oilalarda turar joy muhiti va gender yondashuvlarining o'zaro ta'sirini ekologik madaniyatni rivojlantirish omili sifatida yaxlit ijtimoiy-psixologik model asosida maxsus o'rganishga yetarli e'tibor qaratilmagan. Xususan, yosh oilalarda ekologik bilim va real harakat o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishda gender xususiyatlari hamda yashash muhitining (ko'p qavatli uy yoki hovli) integratsion roli bugungi kungacha empirik darajada tizimli tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu maqolaning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning diagnostik qismida Yasvin va Deryaboning "Naturafil" metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika asosida yoshlarning ekologik madaniyati kognitiv, amaliy hamda tabiatga munosabat kabi tarkibiy komponentlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.



Tadqiqotda jami 400 nafar respondent ishtirok etdi. Tanlanma tarkibi yashash muhitiga ko'ra quyidagicha taqsimlandi: 269 nafar sinaluvchi ko'p qavatli uylarda, 131 nafari esa hovli turar joylarida istiqomat qiladi. Respondentlar, o'z navbatida, gender xususiyatlari (erkak va ayol) kesimida tahlil qilindi.


1-jadval: Ekologik madaniyat tarkibiy qismlarining turar joy turi kesimida qiyosiy tahlili

Turar joy turi	Kognitiv shkala (M±SD)	Amaliy shkala (M±SD)	Tabiatga munosabat (M±SD)
Ko'p qavatli turar joy	2.05±72	1.91±61	1.59±63
Hovli	2.19±67	2.00±62	1.53±60
Umumiy (N=400)	2.09±71	1.94±61	1.57±62

Izoh: M - o'rtacha qiymat (Mean), SD - standart chetlanish (Std. Deviation).

Yashash muhiti turi (ko'p qavatli turar joy yoki hovli) yoshlarning ekologik madaniyati rivojiga turlicha ta'sir ko'rsatadi fikrga kelishimiz mumkin. Xususan, hovli uy-joylarda istiqomat qiluvchi yoshlarda kognitiv (Mean = 2.19) va amaliy (Mean=2.00) komponentlar ko'rsatkichi ko'p qavatli uylarda yashovchilarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga, emotsional komponent (tabiatga munosabat) bo'yicha ko'p qavatli turar joylarda istiqomat qiluvchi yoshlarda (Mean = 1.59) hovli uylarga (Mean = 1.53) nisbatan biroz yuqoriroq ko'rsatkich qayd etildi.

Yashash muhitining yoshlar psixologiyasiga ta'sirini chuqurroq o'rganish va mazkur determinantning gender xususiyatlari bilan birgalikdagi o'zaro ta'sirini aniqlash tadqiqotimizning keyingi bosqichi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm: Gender va yashash sharoitining ekologik madaniyat ko'rsatkichlariga ta'siri

Tadqiqotning ushbu bosqichida gender omili va yashash sharoitining o'zaro integrallashgan ta'sirini ochib beruvchi o'rtacha ko'rsatkichlar (Mean) dinamikasi tahlil qilindi.

- Erkak respondentlar:** hovli muhitining rag'batlantiruvchi ta'siri. Erkak respondentlarning ekologik madaniyat ko'rsatkichlari tahlili yashash muhitining ularning xulq-atvor strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini namoyon qildi. Hovli turar joylarida istiqomat qiluvchi erkaklarda ekologik madaniyat darajasi (Mean = 1,94) ko'p qavatli uylarda yashovchi erkaklarga (Mean = 1,77) nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi.
- Ayol respondentlar.** Ayol respondentlarning ekologik madaniyat ko'rsatkichlari ularning urban va hovli sharoitiga moslashuv strategiyalaridagi o'ziga xoslikni ko'rsatib berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, ko'p qavatli turar joylarda istiqomat qiluvchi ayollar (Mean = 1,74) hovli sharoitida yashovchi ayollarga (Mean = 1,62) nisbatan yuqoriroq natija qayd etgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu natijalar shuni anglatadiki, urbanizatsiya sharoitida (ko'p qavatli uylarda) yashovchi yoshlarda tabiatga nisbatan "sog'inish" yoki "qadrlash" hissi yanada kuchliroq namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

**Erkak respondentlardagi "hududiy mas'uliyat va nazorat" fenomeni.** Hovli muhiti erkaklar uchun shaxsiy hududiy daxlsizlikni hamda uni o'zgartirish va nazorat qilish huquqini taqdim etadi. Erkakning hovli hududidagi faoliyati (daraxt ekish, sug'orish va boshqalar) shunchaki jismoniy mehnat emas, balki "ekologik regeneratsiya" jarayonidir. Ushbu muhitda erkak o'zini tabiatning obyektini emas, balki subyekti sifatida his qiladi. Bu "egalik" va "mas'uliyat" hissi ularning tabiatga bo'lgan munosabatining ongli va tizimli tus olishiga xizmat qiladi. Aksincha, ko'p qavatli uylarda yashovchi erkaklar uchun yashash muhiti ijtimoiy jihatdan chegaralangan va jamoaviy boshqariladigan hudud bo'lganligi bois ekologik tashabbus uchun yetarli "ekologik maydon"ni taqdim etmaydi, deb izohlash mumkin. Shu sababli ularda tabiiy ravishda faollik pasayib, passiv kuzatuvchi pozitsiyasiga o'tish ehtimoli kuzatiladi.

**Amaliy-texnik ko'nikmalarning ekologik ong bilan integratsiyasi.** Hovli muhitidagi kundalik vazifalar erkaklardan doimiy amaliy faoliyatni talab etadi. Ko'p qavatli turar joylarda esa ushbu ko'nikmalarning "begonalashuvi" ehtimoli ortadi, chunki kommunal mas'uliyat markazlashgan tizimlar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, bu shaxsiy ekologik faollikka bo'lgan ehtiyojning susayishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Psixologik identifikatsiya.** Hovli sharoitida yashovchi erkaklar atrof-muhitdagi har bir o'zgarishni (o'simliklarning o'sishi yoki qurishini) shaxsiy yutuq yoki kamchilik sifatida qabul qiladilar. Bu identifikatsiya jarayoni erkaklarning ekologik ongini yanada o'tkir va barqaror shakllantiradi. Ko'p qavatli xonadonlarda yashovchi erkaklar esa tabiat bilan asosan vizual yoki masofaviy munosabatda bo'lib, bu holat ularning ekologik madaniyatini amaliy qatlamdan ajratib, asosan kognitiv (axborot) qatlam bilan chegaralab qo'yadi, deb izohlash mumkin.

**Ayollarning moslashuv strategiyalari.** Ko'p qavatli uylarda yashovchi ayollar ekologik trendlar bilan ko'proq aloqada bo'ladilar (masalan, resurslardan oqilona foydalanish, "zero waste" tamoyillari). Ular uchun ekologik madaniyat shaxsiy qadriyatlar tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uy xo'jaligini boshqarishning zamonaviy strategiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p qavatli uylarda yashovchi ayollar o'zining ekologik ta'sirini uy ichidagi resurslarni boshqarish orqali amalga oshiradi va bu ularning kognitiv ekologik komponentini barqarorlashtiradi.

**Hovli sharoitidagi "psixologik charchoq" fenomeni.** Hovli muhitida ayollarning tabiat bilan muloqoti ko'pincha an'anaviy qishloq xo'jaligi mehnati (bog'dorchilik, hosil yig'ish va boshqalar) doirasida kechib, og'ir va monoton jismoniy mehnatni talab etadi. Bunday sharoitda "ekologik mas'uliyat" ayol psixikasida "charchoq" yoki "majburiyat" bilan identifikatsiyalanishi mumkin. Natijada tabiat bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qadriyatli yondashuvni emas, balki iqtisodiy-pragmatik yondashuvni shakllantirish ehtimolini kuchaytiradi.

Agar urban muhit ayollarni ekologik masalalarga axborotli va qadriyatli yondashishga undasa, hovli muhiti ularni amaliy va monoton mehnat doirasida qoldirmoqda. Shunga ko'ra, hovli sharoitida yashovchi ayollar uchun ekologik tarbiya ularning tabiatga bo'lgan estetik va qadriyatli munosabatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ijtimoiy-psixologik yondashuvni talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, grafikdagi chiziqlarning kesishuvi yosh oilalarda ekologik madaniyatning "gender-muhit" bog'liqligini yaqqol namoyon qiladi. Erkaklar uchun hovli muhiti ekologik faollikni oshirishda "katalizator" vazifasini bajarsa, ayollar uchun urban muhit "axborot-madaniy stabilizator" rolini o'ynamoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh oilalarda ekologik madaniyatning rivojlanishi chiziqli jarayon emas, balki ijtimoiy-demografik va muhit determinantlarining murakkab o'zaro ta'siri mahsulidir. Yashash sharoiti hamda gender xususiyatlari ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari (kognitiv, amaliy va emotsional) rivojlanishiga differensial ta'sir ko'rsatadi. Gender va muhitning ushbu o'zaro ta'siri ekologik tarbiya strategiyalarida "universal yondashuv"dan "differensiallashgan yondashuv"ga o'tish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Yosh oilalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- 1. Tabaqalashtirilgan yondashuv.** Tarbiya strategiyalarini "universal" yondashuvdan yashash sharoiti va gender xususiyatlarini hisobga oluvchi differensiallashgan tizimga o'tkazish.
- 2. Genderga yo'naltirilgan dasturlar.** Ayollar uchun urban muhitda ma'rifiy-madaniy, erkaklar uchun esa hovli sharoitida amaliy ekologik faollikni oshirishga qaratilgan maqsadli loyihalarni amalga oshirish.
- 3. Oila funksiyasini kuchaytirish.** Tabiatga nisbatan affektiv va kognitiv munosabatni uyg'unlashtirish maqsadida ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni saralash kabi birgalikdagi amaliy ekologik tadbirlarni oilaviy qadriyat darajasiga ko'tarish.


**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yashil makon" umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-47-son Farmon. - 2026-yil 25-mart.
2. Abdunazarova Z. X. Ekologik madaniyatning ma'naviy madaniyat tizimidagi o'rni. - Termiz: Termiz davlat pedagogika instituti, 2025. - 78 b.
3. Akramov M. R. Talabalarda ekologik tasavvurlar rivojlanishining psixologik jihatlari: monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 119 b.
4. Akramov M. R. Talabalarda ekologik tasavvurlar rivojlanishining psixologik jihatlari: psixol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. - Toshkent, 2018. - 23 b.
5. Clayton S., Myers G. Conservation Psychology: Understanding and Promoting Human Care for Nature. - Hoboken: John Wiley & Sons, 2015. - P. 85.
6. Egamberdiyeva N. M. Atrof muhit ta'sirida talabalarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2026. - 161 b.
7. Rotton J., White S. M. Air pollution, the sick building syndrome, and social behavior // Environment International. - 1996. - Vol. 22, No. 1. - P. 53-60; Simister J. J. Thermal stress in the USA: Effects on violence and employee behavior // Stress and Health. - 2005. - Vol. 21, No. 1. - P. 3-15; Winneke G., Neuf M. Separating the impact of exposure and personality in annoyance response to environmental stressors // Environment International. - 1996. - Vol. 22, No. 1. - P. 73-81.
8. Stern P. C. Toward a coherent theory of environmentally significant behavior // Journal of Social Issues. - 2000. - Vol. 56, No. 3. - P. 407-424.
9. Yusupova M. A. Yosh oilalarda tabiatga munosabatning gender xususiyatlari: affektiv va kognitiv ustuvorliklar tahlili // Ilm-fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari: 14-to'plam. - 2026. - Fevral. - 252 b.
10. Глазачев С. Н. Экологическая культура учителя: исследования и разработки экогуманитарной парадигмы. - М.: Современный писатель, 1998. - С. 45.
11. Дерябо С. Д., Ясвин В. А. Экологическая педагогика и психология. - Ростов н/Д: Феникс, 1996. - С. 112.
12. Дружинин В. Н. Психология семьи. - СПб.: Питер, 2006. - С. 88.
13. Мелкумова А. А., Любкарский П. И. Основы экологии. - М., 1975. - С. 47.
14. Панов В. И. Экопсихология: парадигмальный поиск. - М.: Психологический институт РАО, 2014. - С. 45.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.